

SOLIQ TIZIMI ORQALI KORXONALAR FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISH

Abduraimova Nigora Abdugapparovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Xalqaro iqtisodiyot va biznes boshqaruvi kafedrası o‘qituvchisi

Email: nigora_abduraimova@tues.uz

ORCID: 0009-0001-8322-4629

Annotatsiya - Maqolada soliq tizimining korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishdagi iqtisodiy mexanizmlari O‘zbekiston misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot soliq stavkalari, maxsus soliq rejimlari, soliq imtiyozlari, ma‘murchilikning raqamlashtirilishi va investitsion rag‘batlarning korxona likvidligi, reinvestitsiya, formalizatsiya, bandlik va o‘shiga ta‘sirini tizimli yondashuv asosida baholaydi. Empirik bazani O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2021–2025-yillardagi kichik biznes subyektlari soni, YaIMdagi ulushi va 2021–2024-yillardagi foyda ko‘rsatkichlari, shuningdek amaldagi Soliq kodeksi va 2026-yilda kichik biznes uchun joriy etilgan qo‘shimcha rag‘batlantiruvchi mexanizmlar tashkil etadi. Natijalar ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes subyektlari soni 2021-yildagi 436 981 tadan 2025-yilda 651 807 taga oshganini, kichik biznesning YaIMdagi ulushi esa 56,3 foizdan 52,2 foizga pasayganini ko‘rsatadi. Bu holat son jihatdan kengayishning o‘zi yetarli emasligini, soliq siyosati unumdorlik, kapital jamg‘arilishi va korxonalarning yiriklashishini rag‘batlantirishi kerakligini bildiradi. Muallif tomonidan soliq rag‘batlarini natijaga bog‘lash, imtiyozlarning samaradorligini davriy baholash, raqamli ma‘murchilik xarajatlarini kamaytirish va kichik biznes uchun soddalashtirilgan rejimlarni bosqichli o‘sh model bilan uyg‘unlashtirish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: soliq tizimi, korxona, rag‘batlantirish, soliq imtiyozi, soliq ma‘murchiligi, kichik biznes, investitsiya, foyda, formalizatsiya, O‘zbekiston.

KIRISH

Soliq tizimi davlat budjeti daromadlarini shakllantirish vositasi bo‘lish bilan birga, korxonalarning iqtisodiy qarorlariga bevosita ta‘sir etuvchi institutsional mexanizmdir. Foyda solig‘i reinvestitsiya hajmiga, qo‘shilgan qiymat solig‘i aylanma mablag‘ga, aylanmadan olinadigan soliq kichik biznesning formal faoliyat yuritish xarajatiga, mol-mulk va yer soliqlari esa kapital va hududiy resurslardan foydalanish samaradorligiga ta‘sir qiladi. Shu sababli soliq siyosatining sifati faqat tushum miqdori bilan emas, balki u korxonani kengaytirish, yangi ish o‘rni yaratish, texnologiya joriy etish va yashirin faoliyatdan formal sektorga o‘tishga qanday rag‘batlantirishi bilan ham baholanishi lozim.


O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes korxonalar soni va bandlik uchun muhim tayanch hisoblanadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes subyektlari soni 2021-yildagi 436 981 tadan 2025-yilda 651 807 taga yetgan. Shu bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning

YaIMdagi ulushi 2021-yildagi 56,3 foizdan 2025-yilda 52,2 foizgacha kamaygan. Mazkur qarama-qarshi dinamika korxonalar sonining ko'payishi iqtisodiy salmoq va unumdorlikning mutanosib o'sishini avtomatik ta'minlamasligini ko'rsatadi.

Soliq rag'batlari aynan shu muammoni yechishga qaratilishi kerak. Past stavka yoki imtiyoz korxona uchun qisqa muddatda likvidlik yaratishi mumkin, biroq u investitsiya, yangi ish o'rni yoki ishlab chiqarish hajmiga aylanmasa, fiskal xarajatga nisbatan iqtisodiy qaytim past bo'ladi. Aksincha, imtiyoz natija shartlari bilan bog'langanida va ma'murchilik sodda bo'lganda, soliq tizimi korxonaning o'sish trayektoriyasini tezlashtirishi mumkin.

2026-yilda O'zbekistonda kichik biznesning o'sishi uchun yangi mexanizmlar joriy etilishi soliq siyosatining rag'batlantiruvchi funksiyasiga yana bir bor urg'u berdi.

Soliq tizimi orqali korxona faoliyatini rag'batlantirish mexanizmi



1-rasm. Soliq tizimi orqali korxona faoliyatini rag'batlantirishning konseptual mexanizmi.

Xususan, ayrim mezonlarga javob beruvchi kichik biznes subyektlari uchun maxsus yengillashtirilgan tartiblar belgilandi. Bunday siyosatning muvaffaqiyati esa imtiyozning qamrovi, muddati, maqsadli guruhi va iqtisodiy natijasini aniq o'lchashga bog'liq.

Tadqiqotning maqsadi soliq tizimi orqali korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning samarali yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslash, O'zbekiston statistikasi asosida mavjud tendensiyalarni baholash va natijaga yo'naltirilgan soliq rag'batlari modelini taklif etishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxonalar faoliyatini soliq tizimi orqali rag'batlantirish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda davlatning fiskal funksiyasi bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash nuqtayi nazaridan keng

tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda soliqqa tortishning korxonalarining investitsion faolligi, ishlab chiqarish hajmi, bandlik, foydalilik va formal iqtisodiyotga kirish jarayonlariga ta'siri asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaraladi.

Musgrave va Musgrave [15] davlat moliyasining klassik nazariyasida soliqlarning fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini ajratib ko'rsatadi. Ularning yondashuviga ko'ra, soliq tizimi nafaqat davlat xarajatlarini moliyalashtirish, balki iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish vositasi ham hisoblanadi. Ushbu nazariy qarash korxonalar uchun soliq yukini shakllantirishda fiskal manfaat bilan iqtisodiy faollikni rag'batlantirish o'rtasidagi muvozanatni hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Devereux va Griffith [13] soliq siyosatining korxonalarining investitsiya va joylashuv qarorlariga ta'sirini o'rgangan. Mualliflar korporativ soliqqa tortish shartlari korxonalarining kapital qo'yilmalari va faoliyat joyini tanlashiga ta'sir qiluvchi omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, investitsion soliq imtiyozlari korxonaning kapital xarajatlarini kamaytirish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishni rag'batlantirishi mumkin. Biroq bunday imtiyozlarning samaradorligi ularning aniq maqsadga yo'naltirilganligi va real investitsiya natijasi bilan bog'langanligiga bog'liq.

Klemm [12] biznes uchun soliq imtiyozlarining sabablari, afzalliklari va ehtimoliy xatarlarini tizimli ravishda tahlil qilgan. Tadqiqotda soliq imtiyozlari investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilishi mumkinligi bilan birga, soliq bazasining qisqarishi, raqobat sharoitlarining buzilishi va davlat budjeti uchun qo'shimcha xarajalar yuzaga kelishi mumkinligi qayd etiladi. Shu sababli soliq imtiyozlarini doimiy va universal shaklda emas, balki muayyan iqtisodiy natijaga erishish uchun vaqtinchalik va maqsadli mexanizm sifatida qo'llash masalasi dolzarb hisoblanadi.

James [11] soliq va nosoliq rag'batlarning investitsion qarorlarga ta'sirini tahlil qilib, investor uchun faqat nominal soliq stavkasi emas, balki soliq tizimining barqarorligi, prognoz qilinishi, ma'murchilik xarajatlari va biznes yuritish muhiti ham muhim ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv korxonalarni rag'batlantirishda soliq stavkalarini pasaytirish bilan bir qatorda, soliq majburiyatlarini hisoblash va bajarish jarayonlarini soddalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Bird va Zolt [2] rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologiyalar va soliqqa tortish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilgan. Ularning fikricha, axborot texnologiyalarining rivojlanishi soliq ma'murchiligining samaradorligini oshirish, soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirish va ma'muriy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Ushbu qarashlar bugungi sharoitda elektron hisob-faktura, elektron deklaratsiya, avtomatlashtirilgan nazorat va raqamli soliq xizmatlarining korxonalar faoliyatini rag'batlantirishdagi ahamiyatini izohlash imkonini beradi.

OECD [4] soliq ma'murchiligini tahlil qilishda soliq stavkalari bilan bir qatorda compliance cost, ya'ni soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq ma'muriy xarajatlarni ham muhim ko'rsatkich sifatida baholaydi. Korxona tomonidan hisobot tayyorlash, hujjatlarni yuritish, soliq hisobini amalga oshirish va davlat organlari bilan

ma'lumot almashish uchun sarflanadigan vaqt va mablag'ning kamayishi biznes muhitining yaxshilanishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan raqamlashtirish kichik biznes uchun bilvosita soliq rag'batini bajarishi mumkin.

Alm [1] soliq intizomi va soliq to'lovchilar xatti-harakatining institutsional omillarini o'rgangan. Tadqiqotlarda soliq to'lashga tayyorlik faqat soliq stavkasi bilan belgilanmasligi, balki davlat institutlariga ishonch, nazorat mexanizmlari, soliq tizimining adolatlilik va majburiyatlarni bajarish xarajatlari bilan ham bog'liqligi ko'rsatiladi. Ushbu yondashuv korxonalarni formal faoliyatga jalb qilishda soliq yukini kamaytirish bilan bir qatorda, soliq ma'murchiligining shaffofligi va prognoz qilinishini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

IMF [3] rivojlanayotgan mamlakatlarda daromadlarni safarbar etish masalasini tadqiq etar ekan, soliq bazasini kengaytirish, ma'murchilik samaradorligini oshirish va iqtisodiy faollikni haddan tashqari cheklamaydigan soliq siyosatini shakllantirish zarurligini qayd etadi. Mazkur yondashuv korxonalar uchun beriladigan imtiyozlarning fiskal xarajatini ham hisobga olishni talab etadi. Ya'ni imtiyoz natijasida yo'qotilgan budget daromadi korxonalarning investitsiyasi, bandligi yoki qo'shimcha iqtisodiy faolliq orqali qoplanishi lozim.

O'zbekiston sharoitida soliq tizimining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi [5] tashkil etadi. Unda soliq turlari, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari, maxsus soliq rejimlari, soliq imtiyozlari va soliq ma'murchiligiga oid normalar belgilangan. Mazkur me'yoriy baza korxonalarning faoliyat turi, aylanmasi va iqtisodiy holatiga qarab differensial soliqqa tortish mexanizmlaridan foydalanish imkonini beradi.

O'zbekistonda kichik biznesni rag'batlantirishning zamonaviy yo'nalishlari 2026-yilda qabul qilingan PF-100-son Farmon [6] bilan yanada rivojlantirildi. Ushbu hujjatda kichik biznes subyektlari uchun ayrim yengillashtirilgan soliq va ma'muriy mexanizmlarning joriy etilishi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kengaytirish va ular uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratishga qaratilgan. Mazkur islohotlarning iqtisodiy samaradorligini baholashda imtiyozdan foydalangan korxonalar soni bilan bir qatorda, ularning investitsiyasi, bandligi, aylanmasi, foydasi va keyinchalik umumiy soliq rejimiga o'tish ko'rsatkichlarini ham hisobga olish muhimdir.

O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasining SIAT ma'lumotlari [7; 8] kichik biznes subyektlari soni va ularning YaIMdagi ulushi bo'yicha uzoq muddatli dinamikani baholash imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar korxonalar sonining ko'payishi bilan ularning iqtisodiyotdagi ulushi o'rtasidagi farqni tahlil qilish uchun muhim empirik asos hisoblanadi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalarning foyda solig'igacha foydasi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar [9] korxonalarning moliyaviy natijalarini vaqt bo'yicha kuzatish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonalarni soliq orqali rag'batlantirishni faqat soliq stavkasini pasaytirish bilan izohlash yetarli emas. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda kamida to'rtta o'zaro bog'liq yo'nalish ajratiladi: birinchidan, soliq yukining korxonaning investitsion va moliyaviy qarorlariga ta'siri; ikkinchidan, soliq imtiyozlarining budget uchun xarajati va iqtisodiy qaytimi; uchinchidan, soliq ma'murchiligining korxona uchun tranzaksiya xarajatlari ta'siri; to'rtinchidan, soliq

tizimining korxonalarni formal iqtisodiyotda faoliyat yuritishga va bosqichma-bosqich yiriklashishga rag'batlantirishi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning muhim qismi umumiy soliq siyosati yoki alohida soliq instrumentlarining ta'sirini o'rganadi. O'zbekiston sharoitida esa soliq imtiyozlari, raqamli ma'murchilik, kichik biznesning formalizatsiyasi, investitsiya va korxonalarining keyingi bosqichda yiriklashishi o'rtasidagi bog'liqlikni yagona tizim sifatida baholashga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, soliq imtiyozining real samarasi imtiyozdan foydalanish faktining o'zi bilan emas, balki korxonaning qo'shimcha investitsiyasi, yangi ish o'rinlari, aylanmasi, foydasi va uzoq muddatli yashab qolish darajasi orqali o'lchanishi lozim.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda soliq rag'batining samaradorligini "soliq xarajati → korxona xatti-harakati → iqtisodiy natija" zanjiri asosida baholash taklif etiladi. Ushbu yondashuv soliq imtiyozining mavjudligi yoki undan foydalangan korxonalar soninigina emas, balki imtiyoz natijasida yuzaga kelgan qo'shimcha iqtisodiy samarani aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan tadqiqotning asosiy ilmiy yo'nalishi O'zbekistonda soliq rag'batlarini korxonalarining investitsiyasi, bandligi, moliyaviy barqarorligi va bosqichma-bosqich o'sishi bilan bog'liq holda baholashdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar, deskriptiv statistika va institutsional yondashuv qo'llanildi. Empirik tahlilda 2021–2025-yillarda ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni va ularning YaIMdagi ulushi, 2021–2024-yillarda kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'igacha foydasi ishlatildi. Ushbu ko'rsatkichlar korxona faolligining to'liq sababiy modelini bermaydi, ammo soliq siyosatini baholash uchun formalizatsiya, iqtisodiy salmoq va moliyaviy natijaning yo'nalishini ko'rsatadi.

Optimal soliqqa tortish nazariyasida soliq stavkasi fiskal daromad va iqtisodiy xatti-harakatlar o'rtasidagi trade-off sifatida qaraladi. Juda yuqori samarali soliq yuki investitsiya va mehnat taklifini susaytirishi, juda keng imtiyozlar esa soliq bazasini yemirishi va resurslarni samarasiz faoliyatga yo'naltirishi mumkin. Shu sababli zamonaviy yondashuvlar neytrallik, soddalik, barqarorlik va maqsadli rag'batlarni uyg'unlashtirishni tavsiya etadi.

OECD va Jahon banki tadqiqotlarida soliq ma'murchiligining sifati stavkalar qatori muhim omil ekani ko'rsatiladi. Korxona uchun soliqning nominal stavkasi past bo'lsa ham, hisobot, hujjat aylanishi, tekshiruv va qaytarish jarayonlari yuqori tranzaksiya xarajatini keltirib chiqarsa, soliq tizimining iqtisodiy rag'batlantirish ta'siri pasayadi. Raqamli hisob-faktura, avtomatlashtirilgan deklaratsiya va riskga asoslangan tekshiruv ushbu xarajatlarni kamaytirishi mumkin.

O'zbekiston Soliq kodeksida aylanmadan olinadigan soliq, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari va ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun alohida rejimlar nazarda tutilgan. Bu differensial yondashuv kichik biznes va investitsion loyihalarga soliq yukini ularning iqtisodiy holatiga moslashtirish imkonini beradi. Biroq maxsus rejimlarning dizayni korxonani sun'iy ravishda kichik bo'lib qolishga undamasligi

kerak. Aks holda soliq chegaralari korxona yiriklashishiga qarshi "o'sish to'sig'i"ga aylanadi.

1-jadval.

Soliq tizimining rag'batlantiruvchi funksiyasi bo'yicha nazariy yondashuvlar.

Nazariy yondashuv	Asosiy g'oya	Soliq siyosati uchun xulosa
Optimal soliqqa tortish	Stavka va xulqiy reaksiya o'rtasida muvozanat mavjud.	Stavka fiskal ehtiyoj va iqtisodiy rag'batni birgalikda hisobga olishi kerak.
Tax expenditure yondashuvi	Imtiyoz budjet uchun yashirin xarajatdir.	Har bir imtiyoz iqtisodiy natija bilan baholanishi kerak.
Compliance-cost yondashuvi	Hisobot va ma'murchilik xarajati ham soliq yukining qismidir.	Raqamlashtirish va riskga asoslangan nazorat zarur.
Formalizatsiya nazariyasi	Soddaroq va prognoz qilinadigan rejim yashirin faoliyatni kamaytiradi.	Kichik biznes uchun soddaroq rejim, ammo o'sishga to'sqinlik qilmaydigan dizayn kerak.
Investitsion rag'bat	Vaqtinchalik soliq yengilligi kapital qo'yilmani tezlashtirishi mumkin.	Imtiyoz investitsiya, bandlik yoki eksport natijasiga bog'lanishi kerak.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda soliq siyosatining tadbirkorlik muhiti, investitsion faollik va byudjet barqarorligiga ta'siri ko'p yoritiladi. O'zbekiston sharoitida so'nggi yillarda soliq stavkalarini soddalashtirish, elektron xizmatlarni kengaytirish va kichik biznes uchun maxsus rejimlarni takomillashtirish islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Ushbu maqolada rag'bat samaradorligi 'soliq xarajati → korxona xatti-harakati → iqtisodiy natija' zanjiri bo'yicha baholanishi taklif qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Statistik tahlil natijalari, avvalo, 2021–2025-yillarda kichik biznes sohasida korxonalarni formalizatsiya qilish va ularning son jihatdan kengayish jarayoni faol kechganini ko'rsatadi. Mazkur davrda ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni 214 826 taga yoki 49,2 foizga oshgan. Bu holat tadbirkorlik faoliyatining kengayishi, yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkil etilishi hamda biznes faoliyatining rasmiy iqtisodiy maydonga bosqichma-bosqich o'tib borayotganidan dalolat beradi.


2-jadval.

O'zbekistonda kichik biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.

Yil	Ro'yxatdan o'tgan kichik biznes, ta	YaIMdagi ulushi, %	Korxonalar soni o'sishi, %
2021	436 981	56.3	—
2022	488 936	54.3	11.9
2023	555 971	53.8	13.7
2024	614 897	53.5	10.6
2025	651 807	52.2	6.0


Biroq korxonalar sonining sezilarli darajada ko'payishiga qaramay, ayni davrda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 4,1 foiz punktga kamaygan. Mazkur nomutanosiblik kichik biznes subyektlari sonining o'sishi ularning iqtisodiyotga

qo'shayotgan hissasi va ishlab chiqarish samaradorligining mutanosib ravishda oshishini avtomatik tarzda ta'minlamayotganini ko'rsatadi. Ya'ni miqdoriy kengayish bilan bir qatorda korxonalar faoliyatining sifati, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish hajmi va qo'shilgan qiymat yaratish salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.




2-rasm. Ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari sonining dinamikasi, 2021–2025.

Shu nuqtayi nazardan, soliq siyosatining keyingi bosqichdagi ustuvor vazifasi faqat yangi korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish va tadbirkorlik subyektlari sonini ko'paytirishga emas, balki mavjud korxonalarning iqtisodiy barqarorligi, unumdorligi va faoliyat ko'lamini oshirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Bunda korxonalarning investitsion faolligini rag'batlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda kichik biznesning o'rta biznes darajasiga o'tishi uchun qulay soliq-iqtisodiy sharoitlarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega.



3-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi, 2021–2025.

Moliyaviy natijalar kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'igacha bo'lgan foydasi 2021-yildagi 23,07 trln so'mdan 2024-yilda 27,94 trln so'mga oshganini ko'rsatadi. 2022-yilda pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2023–2024-yillarda tiklanish yuz bergan. Bu ko'rsatkich nominal qiymat bo'lib, inflyatsiya va tarmoqlar tarkibi ta'sirini alohida nazorat qilmaydi, shuning uchun undan faqat moliyaviy natijaning umumiy yo'nalishini baholashda foydalanish maqsadga muvofiq.



4-rasm. Kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'igacha foydasi, 2021–2024.

2026-yildagi siyosiy yangiliklar soliq rag'batlarini yanada maqsadli qilishga urinishni ko'rsatadi. Prezidentning 2026-yil 26-maydagi PF-100-son Farmonida ayrim kichik biznes subyektlari uchun alohida yengillashtirilgan tartib nazarda tutilgan: tegishli shartlar doirasida realizatsiya aylanmasiga 6 foizlik QQS, foyda solig'i bo'yicha 0 foizlik stavka va ayrim soddalashtirishlar belgilangan.

3-jadval.

Kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'igacha foydasi.

Yil	Foyda solig'igacha foyda, mlrd so'm	Yillik o'zgarish, %
2021	23 070,0	—
2022	21 842,0	-5.3
2023	27 275,1	24.9
2024	27 937,0	2.4

Mazkur mexanizmni iqtisodiy jihatdan to'g'ri baholash uchun imtiyoz olgan korxonalar bilan taqqoslanadigan nazorat guruhining investitsiya, bandlik, aylanma va yashab qolish ko'rsatkichlari solishtirilishi kerak.

4-jadval.

Soliq instrumentlarining rag'batlantiruvchi ta'siri va ehtimoliy risklari.

Soliq instrumenti	Korxonaga ta'sir kanali	Kutiladigan ijobiy natija	Asosiy risk
Foyda solig'i bo'yicha yengillik	Sof foyda va reinvestitsiya	Asosiy kapital va texnologiyaga	Imtiyoz investitsiyasiz

	resursi oshadi.	investitsiya ortadi.	dividend yoki iste'molga ketishi.
QQS bo'yicha yengillik/soddalashtirish	Aylanma mablag' bosimi kamayadi.	Likvidlik va tranzaksiya tezligi oshadi.	Kreditlash zanjiri yoki hisobga olish huquqi cheklanishi.
Aylanmadan olinadigan soliq	Hisob yuritish soddalashtadi.	Formalizatsiya va compliance osonlashadi.	Yuqori marjali va past marjali biznesga bir xil stavka adolatsizligi.
Investitsion soliq imtiyozi	Kapital qo'yilma tannarxi kamayadi.	Yangi quvvat va ish o'rinlari yaratiladi.	Samarasiz loyiha ham subsidiya olishi.
Raqamli ma'murchilik	Hisobot va tekshiruv xarajati kamayadi.	Soliq intizomi va shaffoflik oshadi.	Noto'g'ri risk modeli kichik biznesga ortiqcha bosim qilishi.

Tahlil asosida korxonalarni soliq orqali rag'batlantirish samaradorligini beshta KPI bilan kuzatish taklif etiladi. Birinchisi — imtiyoz olgan korxonalarda investitsiya o'sishi. Ikkinchisi — bir ish o'rniga to'g'ri keladigan soliq xarajati.

5-jadval.

Soliq rag'batlarining natijadorligini baholash uchun tavsiya etiladigan KPIlar.

KPI	Hisoblash mazmuni	Nima uchun muhim
Investitsiya qo'shimcha o'sishi	Imtiyoz guruhi investitsiya o'sishi – nazorat guruhi o'sishi	Soliq yengilligi real kapitalga aylanganini ko'rsatadi.
1 ish o'rniga soliq xarajati	Yo'qotilgan soliq tushumi / yaratilgan yangi ish o'rni	Imtiyozning bandlik samaradorligini o'lchaydi.
3 yillik survival rate	3 yil faol qolgan korxonalar / imtiyoz olganlar	Qisqa muddatli sun'iy faollikni ajratadi.
Qo'shimcha aylanma yoki foyda	Fakt natija – kontrfaktual natija	Rag'batning haqiqiy iqtisodiy samarasini ko'rsatadi.
Graduation rate	Soddalashtirilgan rejimdan umumiy rejimga o'tib o'sganlar ulushi	Soliq rejimi korxonani kichik qolishga emas, o'sishga undayotganini tekshiradi.

Uchinchisi — uch yil ichida korxonaning yashab qolish darajasi. To'rtinchisi — aylanma va foydaning nazorat guruhiga nisbatan qo'shimcha o'sishi. Beshinchisi — imtiyoz muddati tugagandan keyin korxonaning umumiy soliq rejimida barqaror ishlashi.

MUHOKAMA

Statistika soliq siyosatining ikki bosqichli vazifasini ko'rsatadi. Birinchi bosqich — biznesni formal sektorga olib kirish. Ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari sonining keskin ko'payishi bu yo'nalishda ijobiy dinamika mavjudligini ko'rsatadi. Ikkinchi bosqich esa korxonani unumdor, kapital bilan ta'minlangan va eksportga yoki yirik ishlab chiqarish kooperatsiyasiga kirish qobiliyatiga ega subyektga aylantirishdir. YaIMdagi ulushning pasayishi ikkinchi bosqich hali yetarli darajada kuchli emasligini anglatadi.

Shuning uchun soliq imtiyozi universal va doimiy bo'lishi kerak degan yondashuv zaif. Universal yengillik fiskal xarajatni oshiradi, lekin qo'shimcha investitsiya yaratmagan korxonalarga ham subsidiya beradi. Natijaga bog'langan imtiyoz esa ancha himoyalangan: masalan, yangi ishlab chiqarish uskunasi, energiya tejamkor texnologiya, eksport shartnomasi yoki rasmiy bandlik oshishi bilan bog'lanishi mumkin.

Kichik biznes uchun maxsus soliq rejimlari zarur, chunki hisob yuritish va compliance xarajatlari kichik firma uchun yirik korxonaga qaraganda nisbatan og'ir. Biroq rejim chegarasi keskin bo'lsa, korxona aylanmasini sun'iy ravishda limitdan past ushlab turishga intiladi. Bu 'notch effect' deb ataluvchi salbiy rag'batni yuzaga keltiradi. Uni kamaytirish uchun soddalashtirilgan rejimdan umumiy rejimga o'tish bir necha yilga yoyilgan yumshoq overgang, vaqtinchalik kredit yoki bosqichli stavka orqali tashkil etilishi mumkin.

Soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi soliq stavkasini pasaytirishdan kam bo'lmagan rag'batlantiruvchi ta'sirga ega. Elektron hisob-faktura, avtomatik hisobot, oldindan to'ldirilgan deklaratsiya, riskga asoslangan tekshiruv va soliq qarzini erta ogohlantirish tizimi korxonaning vaqt va tranzaksiya xarajatini qisqartiradi. Biroq raqamli nazorat algoritmi xato signal bersa, biznesga ortiqcha blokirovka va likvidlik bosimi paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli apellyatsiya va tezkor tuzatish mexanizmi texnik tizimning majburiy qismi bo'lishi kerak.

2026-yilgi yangi kichik biznes rejimlari tajriba sifatida katta imkoniyat beradi. Ularning samarasi faqat 'qancha korxona foydalanmoqda' degan indikator bilan emas, balki imtiyoz tufayli qancha investitsiya, ish o'rni va qo'shimcha soliq bazasi yaratilgani bilan baholanishi lozim. Buning uchun Soliq qo'mitasi va Statistika qo'mitasi ma'lumotlarini korxona identifikatori darajasida anonim panel bazaga bog'lash ilmiy va siyosiy baholash sifatini keskin oshiradi.

Eng muhim trade-off fiskal barqarorlik va korxona rag'batlari o'rtasidadir. Haddan tashqari keng imtiyoz davlat daromadini kamaytiradi va teng raqobatni buzadi; haddan tashqari yuqori yoki murakkab soliq yuklari esa investitsiya va formalizatsiyani susaytiradi. Shu sababli samarali siyosat kam sonli, aniq maqsadli, vaqt chegaralangan, baholanadigan va avtomatik bekor qilish shartiga ega rag'batlardan iborat bo'lishi kerak.

XULOSA

Tadqiqot soliq tizimi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda faqat stavkalarni pasaytirish vositasi emasligini ko'rsatdi. Samarali model soliq stavkasi, maxsus rejim, imtiyoz, raqamli ma'murchilik, formalizatsiya va investitsion natijani bir boshqaruv tizimida bog'laydi. O'zbekiston statistikasi 2021–2025-yillarda ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni 49 foizdan ortiq oshganini, biroq kichik biznesning YaIMdagi ulushi 56,3 foizdan 52,2 foizga pasayganini ko'rsatmoqda. Bu siyosatning keyingi bosqichi miqdoriy kengayishdan sifatli o'sishga o'tishi kerakligini bildiradi.

Korxonalarni samarali rag'batlantirish uchun besh yo'nalish ustuvor deb baholanadi: soliq imtiyozlarini investitsiya va bandlik natijalariga bog'lash; tax expenditure hisobini ochiq yuritish; kichik biznes rejimidan umumiy rejimga bosqichli

o'tish mexanizmini joriy etish; raqamli ma'murchilik orqali compliance xarajatini qisqartirish; imtiyozlarni kontrol guruhli baholash orqali ularning real iqtisodiy qo'shimcha samarasini aniqlash.

Har bir imtiyoz uchun amal qilish muddati, maqsadli sektor, kutiladigan investitsiya yoki bandlik natijasi va bekor qilish mezonini oldindan belgilanishi lozim. Natijaga erishmagan soliq yengilligi avtomatik uzaytirilmasligi kerak. Shu tariqa soliq siyosati korxonani 'imtiyoz izlovchi' emas, kapital to'plovchi, innovatsiya qiluvchi va yiriklashuvchi iqtisodiy subyektga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, ochiq statistik ma'lumotlar makro va agregat ko'rinishda. Soliq imtiyozining sababiy ta'sirini aniq baholash uchun korxona darajasidagi panel ma'lumotlar, imtiyoz olgan va olmagan guruhlar, tarmoqlar va hududlar bo'yicha difference-in-differences yoki propensity score matching kabi usullar qo'llanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alm, J. (2019). What motivates tax compliance? *Journal of Economic Surveys*, 33(2), 353–388.
2. Bird, R. M., & Zolt, E. M. (2008). Technology and taxation in developing countries: From hand to mouse. *National Tax Journal*, 61(4), 791–821.
3. International Monetary Fund. (2022). Revenue mobilization in developing countries: Tax policy and administration perspectives. IMF.
4. OECD. (2021). Tax administration 2021: Comparative information on OECD and other advanced and emerging economies. OECD Publishing.
5. O'zbekiston Respublikasi. (2019). O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026, May 26). Kichik biznes subyektlarining o'sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma'muriy shart-sharoitlar yaratish to'g'risida (PF-100-son Farmon). LexUZ.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Number of registered small businesses (annual, excluding dehqan farms and farms). SIAT statistical information system.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Share of small business and private entrepreneurship in GDP. SIAT statistical information system.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Profit (loss) of small enterprises and microfirms before income tax. SIAT statistical information system.
10. World Bank. (2020). Doing Business 2020: Comparing business regulation in 190 economies. World Bank.
11. James, S. (2013). Tax and non-tax incentives and investments: Evidence and policy implications. World Bank Group.
12. Klemm, A. (2010). Causes, benefits, and risks of business tax incentives. *International Tax and Public Finance*, 17, 315–336.
13. Devereux, M. P., & Griffith, R. (2003). Evaluating tax policy for location decisions. *International Tax and Public Finance*, 10, 107–126.

14. Shome, P. (2018). Taxation history, theory, law and administration. Springer.
15. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). Public finance in theory and practice (5th ed.). McGraw-Hill.